(5). Xurramova S.M. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalaning nazariy asoslari. “Ta’lim, fan va innovatsiya”, ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal, T., 2023, 5-son, 102-bet.

(6). Xurramova S.M. Talabalarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish mohiyati. “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar”, xalqaro ilmiy-metodik jurnal, T., 2023, 10-son, 270-bet.

Xudayberganov G‘ayrat Quranboyevich (Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi)

KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISHDA FANLARNI ABSSESSIAL VA ORDINATAL BOG‘LAB O‘QITISHNINING O‘RNI

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich ta’limda kreativlikni rivojlantirishda tasviriy san’at va matematika fanlarini abssessial va ordinatal bog‘lab o‘qitishnining o‘rni va ahamiyati bayon qilingan.*

Kalit so‘zlar: *shakl, muammo, vaziyat, rasm, dars, kreativ, topshiriq, tushuncha, mantiq, xotira, fikr, kuzatish, ta’lim, bosqich, daraja, xususiyat, talab, faol.*

Худайберганов Гайрат Куранбоевич (старший преподаватель кафедры методики начального образования Ургенчского государственного университета)

РОЛЬ ПРЕПОДАВАНИЯ НАУК С АБСЦЕССНОЙ И ОРДИНАТАЛЬНОЙ СВЯЗЬЮ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОСТИ

Аннотация. *В статье изложена роль и значение абсцессно-ординального связующего преподавания изобразительного искусства и математики в развитии креативности в начальном образовании.*

Ключевые слова: *форма, проблема, ситуация, картина, урок, креатив, задание, понятие, логика, память, мысль, наблюдение, образование, этап, уровень, характеристика, спрос, активный.*

Khudayberganov Gayrat Kuranboyevich (Senior teacher of the Department of Primary Education Methodology, Urgench State University)

THE ROLE OF SCIENCE TEACHING WITH ABSTCESS AND ORDINAL CONNECTIONS IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY

Annotation. *The article describes the role and importance of teaching fine arts and mathematics in the development of creativity in primary education in an abstract and ordinal connection.*

Key words: *form, problem, situation, picture, lesson, creativity, task, concept, logic, memory, thought, observation, education, stage, level, characteristic, demand, active.*

Kirish. Bolalarni maktabda o‘qitishning dastlabki kunidan boshlab, fanlararo aloqani amalga oshirish zarur. O‘qituvchining bu davrdagi eng asosiy vazifalaridan biri–bolalarga xat-savod asoslarini o‘rgatishdir. Shuning uchun ham o‘qituvchilar ona tili, matematika, tasviriy san’at darslarida, dastlab, bolalarni har xil hoshiyalar chizishga, shakllarni farqlashga o‘rgatadilar.

Bu mashqlar qaysi darslarda bajarilmasin, ularning bajarilishi bevosita hisob bilan bog‘lanadi. Masalan, bolalar doiracha, katakcha, tayoqchalar chizib, uni hisoblaydilar yoki bo‘lmasa, hisoblashda bevosita predmetlarning o‘zidan ham foydalanish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilar kreativligini shakllanishida muhim o‘rin egallaydi.

Kreativ fikrlash asta-sekin kreativ jarayonga aylanadi. Materialni tahlil qilish, keys-stadi metodi, muammo va masalani shakllantirish, mustaqil o‘rganish, kuzatish va o‘lchashni amalga oshirish, kreativ yechimni qidirish va tadqiqotchilik tavsifidagi harakatlarni bajarish uchun muammoli vaziyatlar tashkil etiladi. Muammoli ta’lim quyidagi asosiy tushunchalarni o‘zida mujassamlashtiradi: muammo, muammoli savol, muammoli vazifa, muammoli topshiriq, muammoli vaziyat. Muammoli ta’limda tayyor bilimlarning o‘qituvchi tomonidan berilishi yoki o‘quvchining mustaqil bilim egallashi izohli-ko‘rgazmali metod yordamida aniq tasavvurlar hosil qiladigan, ongda saqlanadigan, zarur bo‘lganda qayta tiklanishini aniqlaydigan axborot shaklidagi savolni tushunish o‘rinli [2].

Material va metodlar. Matematik kreativ fikrlashning shakllanish darajasi, odatda, muayyan turdagi matematik topshiriqlarni bajarganlik orqali belgilanadi. Kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo yondashuvlar va immersiv virtual modullarni qo‘llash o‘quvchilarning nafaqat intellektual, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham yordam beradi. Virtual modullar, masalan, debatlar, treninglar, ishbilarmonlik va rolli o‘yinlar, o‘quvchilarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish va ularga kreativ yondashuvlarni shakllantirish imkonini beradi [4].

1. Fanlararo yondashuv. Fanlararo yondashuv kreativ fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilar, biror-bir masalani turli fanlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqish orqali turli xil g‘oyalar va qarashlarni birlashtirishni o‘rganadilar. Masalan, tarix va adabiyotdan olingan bilimlarni san’at va psixo-

logiya bilan bog‘lash, o‘quvchilarda kompleks va ijtimoiy moslashuvchan fikrlashni shakllantiradi. Shunday qilib, kreativ fikrlash o‘quvchining turli fanlar o‘rtasidagi aloqani anglashga yordam beradi.

2. Immersiv virtual modular. Debatlar. Debatlar o‘quvchilarga fikrni mantiqiy va izchil ravishda qurish, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish, argumentlarni shakllantirish va ular asosida qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Bu faoliyat o‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga undaydi, bir vaqtning o‘zida, o‘z g‘oyalarini kreativ tarzda ifodalash imkonini beradi. Virtual muhitda debatlar o‘quvchilarga o‘z fikrlarini ishonch bilan ifodalashni o‘rgatadi.

Treninglar. Immersiv virtual treninglar o‘quvchilarga maxsus vaziyatlarda muammolarni hal qilishda yordam beradigan muhit yaratadi. Trening modullari real hayotdagi ish faoliyatini simulyatsiya qilishi mumkin, bu esa o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, biznes yoki menejment treninglari o‘quvchilarga kreativ strategiyalar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni o‘rgatadi.

Ishbilarmonlik. Ishbilarmonlik simulyatsiyalari o‘quvchilarga biznes va iqtisodiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ular virtual dunyoda ishbilarmonlik faoliyatini boshlash, mahsulot yoki xizmatni yaratish, bozorda muvaffaqiyatga erishish jarayonlarini simulyatsiya qilish orqali muhim kreativ qarorlarni qabul qilishni o‘rganadilar.

Rolli o‘yinlar. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarga turli ijtimoiy va professional rollarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Ular o‘zini boshqa odam sifatida ko‘rsatish, muammolarni hal qilish va yangi qarorlar qabul qilishda kreativlikni ishlatishga o‘rganadilar. Bu usul, ayniqsa, ijtimoiy va psixologik muammolarni tahlil qilishda samarali.

3. Virtual modullar orqali fanlararo kreativ fikrlashni rivojlantirishning afzalliklari.

Interaktivlik. Virtual modullar o‘quvchilarga interaktiv tajriba taqdim etadi, bu esa ular uchun yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi. Shaxsiy ishtirok va jamoaviy muloqot kreatiflikni faollashtiradi.

Muammoni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish. Virtual simulyatsiyalar orqali o‘quvchilar real hayotdagi muammolarni hal qilishda innovativ yondashuvlarni o‘rganadilar. Bu, o‘z navbatida, kreativ fikrlashni shakllantiradi.

Xatolardan o‘rganish. Virtual modullar xatolarni to‘g‘irlash va tajriba qilish imkoniyatini beradi, bu esa o‘quvchilarning tajriba orqali kreativ fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

Fanlararo yondashuvlar va immersiv virtual modullar o‘quvchilarga kreativ fikrlashni rivojlantirishda yordam beradi, chunki ular turli sohalar va bilimlar orasidagi bog‘lanishni, amaliy vaziyatlarni simulyatsiya qilishni va interaktiv muhitda qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Bu yondashuvlar nafaqat ilmiy, balki amaliy, shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi, bu esa o‘quvchilarning umumiy tafakkurini yanada boyitadi [1].

Natijalar va ularning tahlili. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matematik kreativ fikrlashni fanlararo abssessial va ordinatal bog‘lab shakllantirish bosqichlari va ularning mazmuniga qo‘yilgan didaktik talablar sinf o‘quvchilari matematik kreativ fikrlashini shakllantirishni talab etadi. Buning uchun o‘quvchilar bilan birgalikda boshlang‘ich sinf darsliklaridagi masalalarni muammoli vaziyat usullarida yechishni ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi [3]. Masalan, bunday masalani qaraymiz; ”Anvarda 6 ta yulduzcha, Sarvarda esa Anvardagidan 2 ta ortiq, Akbarda esa Anvar bilan Sarvarda qancha yulduzcha bo‘lsa, shuncha yulduzcha bor. Akbarda qancha yulduzcha bor?”

Masalani oldin arifmetik usulda yechamiz: 6+(6+2) =14 (dona). Shundan keyin o‘quvchilarga bunday topshiriq beriladi: ”Birinchi satrga Anvarda qancha yulduzcha bo‘lsa, shuncha yulduzcha rasmini chizing, ikkinchi satrga Anvardagidan ikkita ortiqcha yulduzcha chizing – bu Sarvardagi yulduzchalar sonini bildiradi (chunki Sarvarda Anvardagidan 2 ta ortiq yulduzcha bor). Ikkila satrda birgalikda qancha yulduzcha borligini hisoblang (chunki shartga ko‘ra, Akbarda Anvar va Sarvarda qancha yulduzcha bo‘lsa, shuncha yulduzcha bor).



Masalani grafik yechish yechimning to‘g‘riligini tekshirish vositasigina bo‘lib qolmay, balki o‘quvchini kreativ ishlashga undaydi, shuning bilan birga, yechishning arifmetik usuli mohiyatini tushinishga yordam ham beradi.

1–2-sinflarda masalalar, asosan, rasmlar shaklida beriladi. Bolalarga rasmlar asosida masalalar tuzdiramiz, ularni yechilishda va yechimini tekshirishda kreativ ishlashga o‘rgatamiz va kreativligini rivojlantiramiz.

1-masala. Rasmga qarab quyidagicha masala tuzish mumkin. Bog‘da 6 ta qo‘ziqorin bor edi. Ertasiga yana 1 ta qo‘ziqoringa ko‘paydi. Bog‘da hammasi bo‘lib nechta qo‘ziqorin bo‘ldi?

Yechish:


Bor edi – 6 ta qo‘ziqorin.

Qo‘shildi – 1 ta qo‘ziqorin.

Bo‘ldi nechta – ?

6 + 1 = 7. Javob: 7 ta qo‘ziqorin bo‘ldi.

O‘quvchilar quyida berilganlardan bu masalaning javobi bo‘la oladigan yechimni topadilar.



Bu masalaga quydagicha teskari masala tuzish orqali yechimini to‘g‘riligini tekshirish mumkin. Bog‘da yettita qo‘ziqorin bor kecha oltita edi, bugun qancha unib chiqqan?

Bor – 7 ta.

Kecha bor edi – 6 ta.

Unib chiqdi –?

7 – 6 = 1.

2-masala. Rasmga qarab quydagicha masala tuziladi. Bekatda 4 ta aftobus bor edi. Ulardan bittasi vaqti bo‘lgach, haydab ketadi. Bekatda nechta aftobus qoldi?


Yechish:

Bor edi – 4 ta aftobus.

Ketdi – 1 ta aftobus.

Qoldi - ?

4 – 1 = 3. Javob: 3 ta aftobus qolgan.



O‘quvchilar quyida berilgan tasvirlar, ya’ni, rasm tagida javoblar orasidan bu masalaning yechimi bo‘la oladiganini izlab topadilar va quydagicha teskari masala tuzib yechimni tekshiradilar: bitta avtobus haydab ketgandan keyin bekatda 3 ta avtobus qoldi, bekatda nechta avtobus bo‘lgan?

Qoldi – 3 ta.

Ketdi – 1 ta.

Bor edi – ?

3 + 1 = 4.

Javob: 4 ta.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining fundamental bilim egallashi, uning intellektual mehnat, kreativ va mustaqil fikr yuritish, produktiv qisman izlanuvchi va evristik ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi, kreativ fikrlashni fanlararo abssessial va ordinatal bog‘lab shakllantirish bo‘yicha o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda mas’uliyat va qat’iyatlilik hissini rivojlantirishda o‘z aksini topadi. Rasmli masalalarni yechish odatdagi masalalarni yechishdan birmuncha farq qiladi. Bunday masalalarda nima haqida gap borayotganligi hamda munosabatlarni taqqoslash, amallarni bajarish uchun qonuniyatni to‘g‘ri topish talab etilishi mumkin. Bunday ko‘rinishdagi masalalarni yechishda o‘quvchilarning topqirligi, zehnining o‘tkirligi, matematik kreativ fikrlashlari shakllanadi va rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Jumayev M.E. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., “Yangi asr avlodi”, 2006, 186-bet.

(2). Bikbayeva N.U. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T., “O‘qituvchi”, 2007, 208-bet.

(3).Леонтьев А.Н., Пономарев Я.А., Гиппенрейтер Ю.Б. Опыт экспериментального развития исследования мышления. М., 1981, с. 269–280.

(4). Хабиб Р.А. Организация учебно-познавательной деятельности учащихся. М., “Педагогика”, 1979.

(5). Махмутов М.И. Организация проблемного обучения в школе. М., “Просвещение”, 1977, 240 с.

Masharipova Feruza Jumanazarovna (PhD, Urgench State University, Urgench),
Matlatipova Muslima G‘ayrat qizi (student, Urgench State University, Urgench)

MASTERING READING THROUGH NOTE-TAKING: STRATEGIES FOR ENHANCING STUDENTS’ COMPREHENSION AND RETENTION

Annotation. *This article examines the importance of note-taking strategies, particularly Reading Journals and the SQ4R method, in enhancing students' reading competence. By transforming passive reading into an active learning process, these strategies promote deeper comprehension, critical thinking, and improved retention. The study reviews existing literature on the role of note-taking in reading education, emphasizing how both methods foster active engagement with texts. The Reading Journal encourages personalized reflection and metacognitive awareness, while SQ4R offers a systematic approach to processsing and retaining information. Practical applications of these strategies in the classroom demonstrate their effectiveness in improving students' academic performance. The article concludes with recommenddations for educators to integrate these techniques into their teaching practices for optimal student outcomes. These strategies not only enhance reading competence but also cultivate lifelong learning skills.*

Keywords: *note-taking strategies, Reading Journals, SQ4R, reading competence, active learning, comprehension, retention, critical thinking, academic performance, metacognition.*

KONSPEKT YURITISH ORQALI O‘QISHNI O‘ZLASHTIRISH: O‘QUVCHILARNING TUSHUNISH VA ESLAB QOLISH QOBILIYATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola talabalarning o‘qish kompetensiyasini oshirishda samarali qaydlar olib borish strategiyalari, xususan, “O‘qish kundaligi” va SQ4R metodining ahamiyatini o‘rganadi. Ushbu strategiyalar passiv o‘qishni faol o‘quv jarayoniga aylantirib, chuqurroq tushunish, tanqidiy fikrlash va yaxshiroq eslab qolishga yordam beradi. Tadqiqot yozuvlar olib borishning o‘qitishdagi roliga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qiladi va ushbu ikki metodning matnlar bilan faol ishlashni qanday rag‘batlantirishini ta’kidlaydi. “O‘qish jurnali” shaxsiy refleksiya va metakognitiv ongni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlasa, SQ4R ma’lumotni qayta ishlash va eslab qolish uchun tizimli yondashuvni taklif etadi. Ushbu strategiyalarning amaliy sinfdagi qo‘llanilishi talabalarning akademik natijalarini yaxshilashdagi samaradorligini ko‘rsatadi. Maqola o‘qituvchilarga ushbu texnikalarni o‘z o‘quv amaliyotlariga qo‘shish bo‘yicha tavsiyalar bilan yakunlanadi. Ushbu strategiyalar nafaqat o‘qish kompetensiyasini oshiradi, balki umrboqiy o‘rganish ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.*